



YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI - FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTINING BOSH OMILI SIFATIDA.

Jahongir Xolbayev O'ktamovich
Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi direktori
ikkkinchi darajali yurist
@Jakhongir_Kholbaev
Telefon +998(90)400-80-08

Annotation: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishning huquqiy asoslari va islohotlar davrida fuqarolik jamiyatining o'ziga xos hususiyatlari va undagi asosiy tendensiyalar, qarashlar, ta'limotlar haqida gap boradi. Shuningdek, zamonaviy davr fuqarolik jamiyati rivojlanishining istiqbollari haqida soha vakillarining fikrlari va qarashlaridan iqtibosliklar keltiriladi.

Keywords: fuqarolik jamiyati, erkinlik, siyosat, siyosiy tizim, suverenitet, oila, davlat funksiyalari, ijtimoiy institutlar, davlat funksiyalari, mahalla institute, mahalliy kengashlar, nodavlat notijorat tashkilotlar.

НОВАЯ КОНСТИТУЦИЯ УЗБЕКИСТАНА – ГЛАВНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА.

Annotation: В данной статье говорится о правовых основах построения гражданского общества в Новом Узбекистане и об особенностях гражданского общества в период реформ, а также о его основных тенденциях, взглядах и учениях. Также приведены цитаты мнений и взглядов представителей отрасли о перспективах развития гражданского общества в современную эпоху.

Ключевые слова: гражданское общество, свобода, политика, политическая система, суверенитет, семья, функции государства, социальные институты, функции государства, институт соседства, местные советы, неправительственные некоммерческие организации.

THE NEW UZBEKISTAN CONSTITUTION IS THE MAIN FACTOR OF THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY.

Abstract: This article talks about the legal basis of building a civil society in New Uzbekistan and the specific features of the civil society during the reforms and its main



trends, views, teachings. Also, quotes from the opinions and views of the representatives of the field are given about the prospects of the development of civil society in the modern era.

Key words: civil society, freedom, politics, political system, sovereignty, family, state functions, social institutions, state functions, neighborhood institute, local councils, non-governmental non-commercial organizations.

KIRISH

“Fuqarolik jamiyati” tushunchasi “davlat” tushunchasi kabi qadimiy va o’zining uzoq rivojlanish bosqichalriga ega bo’lgan tushunchadir. Davlatda yashovchi fuqarolar fuqarolik jamiyatini tashkil qiladi, degan tezisni birinchi bo`lib ilgari surgan olimlardan biri Arastu edi. U “Davlat nima ekanligini aniqlashdan oldin fuqaro tushunchasini aniqlab olish kerak, chunki davlat fuqarolar yig‘indisi, fuqarolik jamiyatidan boshqa narsa emas”, deb yozgan edi^[1]

Fuqarolik jamiyati – haqiqiy fuqarolardan, ya’ni uzviy bog‘liqlikda bo‘lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir^[2].

Fuqarolik jamiyati – konstitutsiyaviy huquq nazariyasida huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko‘p partiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta’milanadigan hamda o‘zinio‘zi boshqarish organlarining mavqeい baland bo‘lgan ijtimoiy tuzum. Bunda mamlakatning har bir fuqarosi siyosiy, ijtimoiy, iqqisodiy, ma’naviy va huquqiy jihatdan o‘z ehtiyojlarini jamoat birlashmalari va fondlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, ular orqali qondiradilar. Fuqarolik jamiyatida fuqarolar davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatadilar, davlatning ko‘pgina vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi. Davlat hokimiyati esa mamlakatning umumiy taraqqiyot

¹ Ilmiy maqola: ZAMONAVIY DAVRDA FUQAROLIK JAMIYATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Jumayev Abdumumin Fayzievich Denov Tadbirkorlik Pedagogika Instituti o’qituvchisi

² <https://uz.wikipedia.org/>



rejalarini tuzadi, uning strategiyasini ishlab chiqadi, mudofaa, milliy xavfsizlik, davlat mustaqilligi va chegaralari daxlsizligini, uning suverenitetini ta'minlash, pulmoliya, soliq, bank siyosati, tashqi siyosat va jahon hamjamiyati bilan aloqalar tizimini yaratadi, uni boshqaradi. Fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichmabosqich o'tish orqali ro'y beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar [Aristotelning „Siyosat“](#) asarida bayon etilgan. Unga ko'ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatiningadolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta'minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to'g'ri va adolatli bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Bu g'oyalar XVII asrga kelib keng rivojlandi. Jumladan, [T.Gobbs](#) asarlarida takomillashtiriddi. XVIII asr Buyuk fransuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquklari deklaratsiyasi e'lon qilinishi bilan esa Fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi^[3].

Chunki jamiyatning teng huquqli a'zolari – „fuqarolar“ tushunchasi paydo bo'ldi, ular jamiyat va davlat manfaatlari bilan bog'langan shaxsiy manfaatlarini anglay boshladilar. [Kant](#), [Russo](#), [Gegel](#), [Popper](#) ilgari surgan fikrlar Fuqarolik jamiyati ning yangidan-yangi qirralarini, umuminsoniy qadriyat sifatidagi mohiyatini ochib berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [Farmoniga](#) muvofiq 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" da ham fuqarolik jamiyati taraqqiyotini ko'zlab bir qancha aniq maqsadlar belgilab olindi.

I. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish bo'limida 12 ta aniq maqsadlar keltirib o'tilgan. Shulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz:

1-maqsad: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish.

³ <https://uz.wikipedia.org/>



Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etish maqsadida mahallalar vakolatlarini kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish.

Fuqarolarning o‘z mahallasi hayotidagi ishtirokini hamda davlat organlari va mahallalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani ta’minlash, mahallalarda aholi bilan ishslashga qaratilgan jarayonlarni raqamlashtirish.

Mahalladan turib barcha davlat idoralariga murojaat qilish tizimini yaratish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko‘rsatish.

Mahallalarning “o‘sish nuqtalari” va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.

Mahallalar uchun yuqori malakali mutaxassislarni maqsadli tayyorlash, barcha mahalla raislari va hokim yordamchilarida boshqaruv asoslari, bandlikni ta’minlash, bank-moliya, tomorqa, er, chorvachilik va parrandachilik bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi institutining samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish^[4].

2-maqsad: Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo‘g‘inga aylantirish.

Xalq deputatlari Kengashlarida doimiy asosda faoliyat yurituvchi deputatlar korpusini shakllantirish va ularning vakolatlarini kengaytirish orqali hududiy ijro organlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish.

Xalq deputatlari Kengashlarining mahallalardagi muammolarni hal qilishdagi rolini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish, mahalliy budgetni shakllantirish va nazorat qilish bo‘yicha ularning mas’uliyatini kuchaytirish.

⁴ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son



Mahallalarning joylardagi vakillik organlari bilan, xalq deputatlari Kengashlarining Oliy Majlis Senati bilan, hokimliklarning vazirliklar va ularning hududiy bo‘linmalarini bilan aloqalarini mustahkamlash.

Mahalliy kengashlarning kotibiyatlari faoliyatini yanada kuchaytirish choralarini ko‘rish[⁵].

3-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish.

Joylardagi masalalarni hal etishda mahalliy hokimliklarning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish va har bir vazifa ijrosi, shuningdek sarflanayotgan mablag‘lar yuzasidan jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish.

Mahalliy ijro hokimiyati organlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirish, shu jumladan hokimlarni saylash tizimini joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan hududiy ijro organlarining shtat birligi va tuzilmalarini belgilash amaliyotini bosqichma-bosqich kengaytirish, hududlarda amalga oshiriladigan vazifalar bo‘yicha “vakolatlar reyestri”ni shakllantirish.

Mahalliy boshqaruv faoliyatiga axborot texnologiyalarni keng joriy qilish, hududlarning 40 dan ortiq, jumladan transport, infratuzilma, ijtimoiy va boshqa sohalar bo‘yicha ma’lumotlarni jamlovchi tahliliy geoportallarini ishga tushirish va fuqarolarning bu boradagi qiyinchiliklarini hal etish ko‘zlangan.

XULOSA

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zarur sharti iqtisodiyotni rivojlantirishdir. G‘arb mamlakatlari taraqqiyotining tarixiy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotni mustahkamlashda davlat hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biroq, bu masalada davlatning tartibga solish ahamiyatini mutlaqlashtirib bo‘lmaydi. Davlatning ta’siri tadbirkorlikka zarar keltirmaydigan tarzda amalga oshirilishi kerak. Davlat, eng avvalo, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun normal sharoit yaratishga, bu sohada bevosita tartibga solishni amalga

⁵ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son



oshirmaslikka chaqirilgan. Davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish ta'siri faqat bozorning o'zini o'zi tartibga solish doirasidan tashqarida bo'lgan sohalarda mumkin. Bu sohalarga mudofaa, xavfsizlik, jinoyatchilikka qarshi kurash, ijtimoiy xavfsizlik, monopoliyaga qarshi tartibga solish kiradi. Xulosa qilib aytganda fuqarolik jamiyatni tushunchasi murakkab ijtimoiy tushunchalardan biri bo'lib, ma'lum rivojlanish bosqichlariga ega hamda o'zini takomillashtirib borayotgan tushuncha hamdir. Bu tushuncha ayniqsa bugungi globallashuv davrida yuksak darajada rivojlanmoqda. Chunki bu davrda insonlarning siyosiy, ijtimoiy faolligi, ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki o'smoqda. Bularning barchasi kelajakda fuqarolik jamiyatini o'sishiga rivojlanishiga va yangi bir rivojlanish bosqichiga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyatni nafaqat davlatning majburlov kuchi bilan, balki uning a'zolari bo'lmish fuqarolarning o'zлari orqali saqlab turiladigan va qat'iy tartib qaror topgan jamiyatdir. Bunday jamiyat o'zini o'zi yuksak darajada tashkil etishi bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyatiga davlatning kuchli ta'siri talab etilmaydi.

Mazkur jamiyat nafaqat o'zining siyosiy, madaniy hayotini, balki iqtisodiy, ijtimoiy hayotini ham boshqarib turadi. Hamma jamiyatni ham fuqarolik jamiyatni deb bo'lmaydi. Fuqarolik jamiyatni ancha yuksak darajadagi ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”
3. Ilmiy maqola: “Zamonaviy davrda fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlari”- Jumayev Abdumumin Fayzievich Denov Tadbirkorlik Pedagogika Instituti o'qituvchisi
4. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-sun, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-sun, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-sun; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-sun
5. Аристотель. Политика. Сочинения в 4-х томах. М., 1983. Т. 4.



6. Гегель, Г. Философия права. М., 1990.
7. Серебряков, С.Л. Цивилизованные основы для формирования гражданского общества в России // Социальнopolитический журнал. 1995. №2.
8. <https://uz.wikipedia.org/>

